

институциональных преобразований. *Новый университет. Серия «Экономика и право»*, (2 (36)), 55-60.

3. Тухтасинова, М. М. (2019). ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Апробация*, (4), 80-83.

4. Usmanova, Z. M. (2023). KADRLARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHGA YONDASHUVLAR. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3(5), 54-60.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Farmonov Ilhomjon

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

i.i.farmonov@kokanduni.uz

Akramova Malohat

Qo'qon universiteti talabasi

ilhomjonovamalohat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va innovatsiyalar haqida tahlil qilinadi. Maqolada turizm sohasidagi ilg'or texnologiyalar, raqamli platformalar va ekologik jihatdan barqaror yondashuvlar kabi zamonaviy usullar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: turizmni rivojlantirish, xalqaro tajriba, innovatsiyalar, barqaror turizm, raqamli texnologiyalar, turizm infratuzilmasi, ekoturizm raqobatbardoshlik

Kirish: Turizm sohasining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan. Turizm nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki madaniyat va ta'lim, ijtimoiy hamda ekologik jihatlarni rivojlantirishda ham katta rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, turizm sohasining samarali rivojlanishi uchun bir qator muhim omillar mavjud. Dunyoning turli burchaklarida turizmni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirgan davlatlar o'zlarining innovatsion yondoshuvlaridan foydalanib, xalqaro miqyosda katta natijalarga erishgan. Ushbu tajribalar O'zbekistonga ham o'zining turizm salohiyatini to'liq amalga oshirishda yordam bera olishiga ishonch mavjud. Mazkur maqolada, turizmni rivojlantirishdagi xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston uchun samarali va mos yondoshuvlar haqida fikrlar bildirilib, ularning amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Turizm sanoati dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sishning muhim tarmog'iga aylangan. Ko'plab mamlakatlar uchun turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, turizmni rivojlantirishda boshqa davlatlarning tajribasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, infrastruktura rivojlanishi, madaniy merosni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda samarali usullarni o'z ichiga oladi. Mamlakatlar o'rtasida turizmni rivojlantirishning o'ziga xos yondoshuvlarini o'rganish, O'zbekistonning turizm sohasi uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashda muhim bir qadam bo'ladi. Ushbu maqolada, turizmni rivojlantirishda eng muvaffaqiyatli bo'lgan xorijiy davlatlarning tajribasi tahlil qilinadi. Jahon Sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi sayyohlar tomonidan sarflangan mablag'ning 20 foizidan ko'prog'i Xitoyning ulushiga to'g'ri keladi. Turkiyaning madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoyning ijtimoiy tarmoqlar orqali bergan ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat 2020 yilda 29 million nafar sayyohni qabul qilgan va bu davlatga 24 milliard dollar daromad keltirgan. O'zbekistondagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning 9 oyida 1,2 million nafar sayyoh kelgan, 273 million dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan. Mamlakat turistik talablarga javob berishi, albatta, bu sayyohlar tashrifi foiz ko'rsatkichlari yuqoriligi bilan bog'liq. Nafaqat turistlar, balki xalqimiz ham yo'llardagi ayrim umumiy hojatxonalarning ayanchli holatlarini uchratishi mumkin. Hatto, tozalik talablariga javob bermasada, xizmat haqi talab qilinishi esa ta'bni xira qiladi. Kam holatlarda avtoshoxobchalar tasarrufida bo'lgan bepul hojatxonalar mavjud. Ammo ularning ba'zilarida issiq suv va tozalik vositalari mavjud emas. Turkiyada bu jihatga alohida e'tibor qaratilganiga guvoh bo'ldik. Shaharlararo umumiy hojatxonalarga tozalik vositalari qo'yilgan holda

xalqqa bepul xizmat ko'rsatadi. Xushbo'ylantiruvchi vositalar esa alohida ta'rifga ega. Uzoq manzil tomon borar ekanmiz, yo'lda biror oshxonada tanavvul qilamiz. Ayniqsa, yurtimizga tashrif buyuradigan har bir xorijlik mehmon milliy taomlarimizdan bahramand bo'lishni istaydi. Og'riqli bo'lsada aytish lozim, bizda aksariyat oshxonalar talabga javob bermaydi. Milliy taomlarni sayyohlarga taqdim qilishda, xizmat ko'rsatishda ba'zi rivojlangan davlatlar tajribasi e'tiborga molik. Xizmat ko'rsatishdagi tezlik va hurmat etikasi asosiy o'rinlarda bo'ladi. Har bir oshxona o'z mijozlarini jalb qilish maqsadida shirin taomlarni taqdim etish bilan birga barcha turdagi salatlar va choy oshxona hisobidan beriladi. Mijozlarga bo'lgan muomala esa o'ta yuqori darajada. Mamlakatimizda tarixiy binolar muhofazasi qonunlar asosida himoya qilinsada, ularni asrash masalasida kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bu ham e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan sanaladi. Shuningdek, bugungi kunda bizda arxeologik yodgorliklar ancha e'tiborga muhtoj.

Asosiy qism: Fransiyada turistik mahsuloti quyidagi yo'nalishlarda sotiladi: "sohil" (plyaj turizmi), "tog'lar" (qishki turizm), "tabiat" (ekologik turizm), "madaniyat va meros" (ekskursiya turizmi), "Fransiya shaharlari" (kognitiv turizm), "yashash san'ati" (vinochilik va restoran turizmi), diniy turizm va boshqalar. Shuningdek, Fransiyada biznes turizmi, yoshlar turizmi va imkoniyati cheklangan kishilar uchun ham turizm rivojlangan. Bugungi kunda Fransiyada qishloq joylarida dam olish va qishloq xo'jaligida aholini yashash tarzi bilan tanishish imkonini beruvchi qishloq turizmi juda mashhur. Turizmning ushbu turi bilan tashrif buyuruvchilar uchun turar joy, ovqatlanish, bo'sh vaqtni tashkil etish (baliq ovlash va ov qilish), ekskursiya xizmatlari ko'rsatiladi va bularning barchasi tabiiy va qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish orqali tashkil etiladi. Fransiyadagi qishloq turizmining maqsadi mamlakat hududining rivojlanishini ta'minlashdir. Odatda turistlar bu yerda kichik kottejlardakvartiralarda joylashadilar, frantsuzlar ekologik toza qishloq mahsulotlaridan mustaqil ravishda ovqat tayyorlaydilar. Fransiyadagi qishloq mamlakat maydonining qariyb 80 foizini egallaydi, shuning uchun frantsuzlar qishloq turizmini faol rivojlantirmoqdalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga emas, balki qishloq turizmi sohasida xizmat ko'rsatishga e'tibor qaratmoqdalar. Shu maqsadda frantsuzlar hatto maxsus qishloqlar yaratadilar va hokimiyat qirg'oq zonalarida uylar qurishni va qumli plyajlarni yaratishni rag'batlantirib kelmoqda. Shunisi e'tiborga loyiqki, qishloq turizmini nafaqat chet elliklar (nemislar, inglizlar, belgiyaliklar, gollandlar va boshqalar), balki frantsuzlarning o'zlari orasida ham mashhur. Bugungi kunda frantsuzlar turizmni boshqarish uchun ba'zi choralarni ko'rmoqdalar. Ko'pgina muzeylar va diqqatga sazovor joylar (shu jumladan Eyfel minorasi, Luvr)ga tashrif buyurish sanasi va vaqtni tanlash bilan elektron chiptalarni sotib olish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, madaniy obyektlarga tashrif buyurish jarayoni yanada uyushgan bo'ladi, ko'chalarda navbatlar kamroq bo'ladi. Turizm sanoati frantsuzlar va mehnat muhojirlari uchun milliondan ortiq ish o'rinlari bilan ta'minlaydi, bu esa ishsizlik darajasi pasaytirishga imkoniyat yaratadi. Fransiyada rivojlangan mehmonxona va restoran biznesi turistlar oqimini ko'paytirishga yordam beradi. Bronlanlashtirish saytlari ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Parij shahrida 5000 ga yaqin mehmonxona mavjud. Taqqoslash uchun, O'zbekitonda 2022-yilda mehmonxonalar soni 1167 taga yetgan. O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 2023-yilda 6 626 300 kishini tashkil etgan. Ispaniyaning turizm bozori asosan xorijlik turistlarning talablarini inobatga olgan holda shakllantirilgan. Turistlar Ispaniyani boy madaniy merosi, qulay mehmonxonalari, sifatli va benuqson xizmatlari, mehmondo'stligi hamda qulay muhiti mamlakat bo'ylab sayohatni va dam olishni tanlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ispaniyada milliy darajadagi turizm faoliyati 48/1963-sonli "Turizm sohasidagi vakolatlar to'g'risida"gi qonun va 14-yanvar 1965-yildagi "Xususiy turizm korxonalari faoliyati to'g'risida" gi Farmon bilan belgilanadi. Turizm sohasidagi davlat nazorati Sanoat, energetika va turizm vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Turizm bo'yicha Bosh kotib ushbu Vazirlikka hisobot beradi, bu esa o'z navbatida Turespaña, Ispaniya turizm instituti va Ispaniyaning chet elda turizmni targ'ib qilish boshqarmasi bilan hamkorlik qiladi. Ispaniyada har uch yilda bir turizm instituti davlatning eng muhim dasturlari doirasida

strategik reja ishlab chiqadi. Turistik xizmatlarni sertifikatlash va lisenziyalash hamda turizmni rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqish mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi. Ispaniyada turizmning barcha sohalari birdek rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda Ispaniya hukumati dengiz bo'yi turizmiga qaramlikdan qutulish maqsadida eko-turizm va qishloq joylariga sayohat kabi yo'nalashlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Respublikamiz xalqaro turizm biznesidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga egaligi insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. O'zbekiston nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urf-odatga ega bo'lgan mehmondo'st xalqqa ega. Bularning barchasi xorijiy turistlar e'tiborini o'ziga jalb etadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi. Ammo xalqaro turizm taraqqiyoti darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmas choralarni belgilash va ularni jadallik bilan hayotga tatbiq etish lozim.

Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasini rivojlantirish tajribasini tahlili natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Mamlakatimizda xorijiy turistlarni jalb qilish uchun bevosita javobgar tashkilotlarning bo'lishi va ushbu tashkilot davlatning turizm siyosatini amalga oshirishni ta'minlashi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi kerak;

Mamlakatning turistik salohiyatini baholash va undan oqilona foydalanish;

Mamlakatimizning turistik imkoniyatlarini targ'ib qilish;

Aholi o'rtasida turistik madaniyatni shakllantirish;

O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan chet ellik investorlarni tanishtirish va ulardan unumli foydalanish;

Respublikamiz vakillarining Yevropa mamlakatlarida o'tkaziladigan turistik yarmarkalarda doimiy ravishda ishtirok etishini ta'minlash. Yuqoridagi xulosadagi tadbirlarni amalga oshirish turizm infratuzilmasini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun g'oyatda zarur bo'lib, uning imkoniyatlaridan kelib chiqib, turizm sohasi orqali aholining moddiy farovonligini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini tashkil qilish mumkin bo'ladi.

Turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etishning samarasi quyidagicha: Innovatsiyalar va turizmning o'zaro bog'liqligi: a) Innovatsiyalar turizm xizmatlarining samaradorligini oshiradi. Masalan, onlayn bronlash tizimlari orqali mehmonlar o'z sayohatlarini oldindan rejalashtirishi, shuningdek, xizmatlarga qulay kirish imkoniyatidan foydalanishi mumkin. b) Zamonaviy avtomatlashtirilgan gidlar tarixiy va madaniy joylar bo'ylab ekskursiyalarni interaktiv va qiziqarli qiladi. Bu Yevropa davlatlarida keng qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda O'zbekiston ham ushbu texnologiyalarni o'zlashtirmoqda. c) Jahon bozorida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning ahamiyati katta. Yaponiya va Janubiy Koreyada sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar mehmonlar uchun qulay sharoit yaratib, ularning mamlakatga qayta tashrif buyurish istagini oshiradi. d) O'zbekiston uchun innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali mehmonlarni jalb qilish va ularning qoniqishini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston turizmida innovatsiyalarni joriy etish istiqbollari quyidagicha: 110 a) Elektron turizm platformalari orqali sayyohlarga xizmat ko'rsatishni kengaytirish muhim yo'nalish hisoblanadi. Masalan, Ziyorat.uz platformasi orqali ziyorat turizmini rivojlantirish maqsad qilingan. b) Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) texnologiyalari orqali tarixiy obyektlarni onlayn tomosha qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu xorijiy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. c) Toshkent va boshqa yirik shaharlarda "Smart-tourism" tizimlarini rivojlantirish orqali transport va mehmonxona xizmatlarini avtomatlashtirish rejalashtirilgan. Biometrik tekshiruv tizimlari va elektron yo'l xaritalari bu boradagi eng dolzarb innovatsiyalardandir. d) Davlat dasturlari doirasida mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini raqamlashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashtirish davrida turizm innovatsion yondashuvlarning afzalliklari quyidagicha: a) Innovatsiyalar turizm

xizmatlarining sifatini oshirib, sayyohlarning mamlakatdan qoniqish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. b) Turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini kuchaytiradi. Misol uchun, elektron bronlash tizimlari orqali mahalliy mehmonxonalarning daromadlari sezilarli darajada oshmoqda. c) Turizmda yangi ish o'rinlari yaratishga zamin yaratadi, bu esa mahalliy aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. d) O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi mavqeini yaxshilashga yordam beradi. Innovatsion yechimlar milliy madaniyatni global darajada targ'ib qilish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston turizmini innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida innovatsion yondashuvlar asosida turizmni rivojlantirish: tarixiy obyektlarning 3D xaritalarini yaratish va virtual ekskursiyalarni yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Toshkent shahrida xalqaro turizm yarmarkalari va forumlarini tashkil etish orqali zamonaviy innovatsion g'oyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratilmoqda. Mahalliy tadbirkorlarni raqamli texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan subsidiya va grantlar ajratilmoqda.

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavdalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo'lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 1993 yil 4 oktyabrda Butunjahon turizm tashkilotiga Markazi Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib a'zo bo'ldi. Bu o'z navbatida O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish ishlariga katta ijobiy turtki berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" gi 5611 sonli qarorida "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi"1ga muvofiq Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo'lovchilar soni va investitsiyalarni ko'paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor berildi. Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay (paxta, gaz, neft) valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur soha kuzatuvchilari sayyohlik va turizm iqtisodiy rivojlanishning drayveri – harakatlantiruvchi kuchi ekani haqida yakdil fikr bildirmoqda, ushbu sohalar yangi ish o'rinlariga zamin yaratish barobarida (ICAO ma'lumotiga ko'ra, 2017 yilda har 10 ish o'rnining bittasi shu sohaga tegishli bo'lgan) ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara ko'chalaridagi kichik hunarmandchilik do'konlarigacha bo'lgan qamrovni qamrab oladi. U insonlarda iqtisodiy ko'nikmalarni oshiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda, jumladan, eng rivojlangan 10 ta mamlakatda butun sa'yohatlar chet ellik sayyohlarni jalb etishga qaratilmoqda.

Takliflar: Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish: Turizm sohasida raqamli platformalar va onlayn xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirish, foydalanuvchilar uchun qulay va samarali xizmatlar yaratish. Bu, nafaqat turistlarga, balki turizm kompaniyalariga ham samarali ishlash imkonini yaratadi.

Ekoturizm va barqaror rivojlanishga e'tibor qaratish: Turizm sohasida ekologik jihatdan barqaror yondashuvlarni kengaytirish. Yashil turizmni rivojlantirish va tabiiy resurslarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish.

Turizm infratuzilmasini takomillashtirish: Transport, mehmonxonalar, madaniy obidalar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarining sifatini oshirish. Bunda xorijiy tajribalardan foydalanish, yangi investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Kadrlar malakasini oshirish: Turizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribalar asosida yangi dasturlarni ishlab chiqish. Bu, turizm xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beradi.

Turizmni barqaror boshqarish tizimlarini joriy etish: Turizmni boshqarish bo'yicha innovatsion va samarali tizimlarni ishlab chiqish. Ular yordamida turizmni yanada samarali tarzda rivojlantirish va natijalarga erishish mumkin.

Xulosa: Turizmni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiyalarni o'rganish, sohaning barqaror o'sishini ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Turizm sohasida ilg'or texnologiyalar, raqamli platformalar, ekologik turizm va yangi boshqaruv tizimlari kabi innovatsion yondashuvlar jahon bo'ylab muvaffaqiyatli qo'llanilib, iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlikka qaratilgan yondashuvlar turizm sohasining kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy tajribalardan olingan natijalarni tahlil qilish, o'z mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday tajribalarni joriy etish nafaqat turizm sohasini yanada barqaror va raqobatdosh qiladi, balki mamlakatning global turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mansfeld, Y., & Pizam, A. (2006). *Tourism, Security and Safety: From Theory to Practice*. Elsevier.
2. Buhalis, D., & Sinclair, M. (2008). *eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management*. Pearson Education.
3. UNWTO (World Tourism Organization). (2019). *Tourism Highlights: 2019 Edition*. World Tourism Organization.
4. Kotler, P., Armstrong, G., Saunders, J., & Wong, V. (2008). *Principles of Marketing*. Pearson Education.
5. Gartner, W. C. (2004). *Tourism Development: Principles, Processes, and Policies*. Routledge.
6. Weaver, D. B., & Lawton, L. J. (2014). *Tourism Management*. Wiley.
7. Harrison, J., & Marx, S. (2010). *Innovative Tourism: Perspectives and Case Studies*. Routledge.
8. Agarwal, S. (2002). *Tourism and Sustainable Development: New Perspectives*. Elsevier.
9. Pizam, A., & Mansfeld, Y. (2016). *Consumer Behavior in Travel and Tourism*. Routledge.
10. UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization). (2017). *Tourism and Culture: Exploring the New Partnership*. UNESCO.

UNDERSTANDING THE ROLE OF SOCIAL ENTREPRENEURS IN BUILDING SUSTAINABLE TOURISM VILLAGES (A CASE STUDY IN NGLANGGERAN)

Desy Nur Aini Fajri,

Lecturer, Tourism Study Program,

Faculty of Letters and Cultures, Universitas Gunadarma, Indonesia,

desynur@staff.gunadarma.ac.id